

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.12.2019 Tar. 78.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**QARSHIYEV ISLOM MAXMARAHIM O‘G‘LI**

**SURXON-SHEROBOD VOHASI QO‘NG‘IROTLARINING HUDUDIIY  
JOYLASHUVI VA ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AFTOREFERATI**

**Termiz – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Qarshiyev Islom Maxmarahim o'g'li**

Surxon-Sherobod vohasi qo'ng'irotlarining hududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlari.....3

**Каршиев Ислон Махмарахим угли**

Территориальное расселение и этнокультурные особенности кунгратов Сурхон-Шерабадского оазиса.....23

**Qarshiyev Islom Maxmarahim o'g'li**

Territorial location and ethno-cultural characteristics of the Khungirat tribes in Surkhan-Sherabad Oasis.....45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.12.2019 Tar. 78.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**QARSHIYEV ISLOM MAXMARAHIM O‘G‘LI**

**SURXON-SHEROBOD VOHASI QO‘NG‘IROTLARINING HUDUDIIY  
JOYLASHUVI VA ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AFTOREFERATI**

**Termiz – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tar1155 bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tersu.uz](http://www.tersu.uz)) hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tursunov Saypulla Narzullayevich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullayev Ulug'bek Saydanovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Usmonov Murtoz Shodiyevich**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «3» 06 kuni soat 10<sup>09</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol Avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino 4-qavat, Majlislar zali). Tel.: (99876) 223-13-11; ye-mail: termizdu@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (157-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Termiz shahri, Barkamol Avlod ko'chasi, 43-uy.) Tel/faks: 03762217690.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «22» 05 kuni tarqatildi.  
(2023-yil «22» 05 dagi 15 raqamli reyestr bayonnomasi).



**R.E.Xolikova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi o'rinbosari, t.f.d.,  
professor.

**H.E.Xolmo'minov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, t.f.n., dotsent.

**E.A.Qabulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash huzuridagi Ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., professor.

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon xalqlarining integratsiyalashuvi va iqtisodiyotda globallashuv jarayonlari jadal kechayotgan bir paytda etnik va madaniy o'zlikni anglash, lokal etnohududiy madaniyatlar va milliy qadriyatlarni saqlab qolish ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda milliylikning ahamiyati o'sib, jahon xalqlari orasida o'z tarixi va an'anaviy madaniyatiga bo'lgan qiziqishning yanada kuchayishiga e'tibor qaratilmoqda va bu yo'nalishdagi tadqiqotlar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Dunyoning AQSh, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Misr va Xitoy kabi rivojlangan mamlakatlardagi yirik ilmiy tadqiqot markazlarida dunyo etnografiyasi, etnologiyasi, antropologiyasini tadqiq qilinayotgan mavzularidan biri xalqlarning hayotidagi barcha jarayonlar emas, balki etnos madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari hisoblanib, unda xalqning milliy o'zligini anglashi va etnoslararo aloqalarni mustahkamlash imkonini beruvchi milliy siyosatga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda o'zbek xalqi etnomadaniyatining o'ziga xos qadimiy an'analarini tiklash va rivojlantirish borasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi g'oyalardan muhimi umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish o'z aksini topmoqda. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib, mavzudagi asosiy yo'nalish o'zbek xalqi tarkibidagi yirik subetnoslardan biri hisoblangan qo'ng'irotlarning an'anaviy xo'jalik faoliyati va etnomadaniyatidagi ishtirokini Surxon-Sherobod vohasi misolida yoritish tadqiqotning zaruriyatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2022-yil 25-iyuldagi PQ-331-son "Mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik mikromarkazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2021-yil 5-avgustdagi PQ-5211-son "O'zbekistonda yilqichilik, ot sporti, zamonaviy beshkurash va poloni 2025-yilgacha rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida" gi qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli dasturiy yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqot muammosining o'rganilganlik darajasi.** Tadqiqotda tizimli yo'nalishni amalga oshirish asosida o'rganilayotgan mavzu doirasida ilmiy nashrlar va

adabiyotlar tahlili dissertatsiyaning birinchi bobida batafsil yoritilgan. Tizimli yondashuvga rioya qilgan holda o'rganilayotgan mavzu tarixshunosligi o'zi g'oyaviy umumiylikidan kelib chiqib, shartli ravishda to'rt guruhga bo'lib, tahlil qilingan:

1. Rossiya imperiyasi davriga oid adabiyotlar;
2. Sovet davri tadqiqotlari;
3. Mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlar;
4. Xorijiy tadqiqotlar.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Termiz davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Surxon-Sherobod vohasi qo'ng'irotlarining hududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- qo'ng'irotlar etnik tarixining manba va ilmiy adabiyotlarda o'rganilishiga oid nazariy-uslubiy qarashlarni tadqiq etish;
- Surxon-Sherobod vohasida qo'ng'irotlarning etnohududiy joylashuvi va etnik tarkibini ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik omillar kontekstida ilmiy jihatdan asoslab berish;
- dehqonchilik mashg'ulotidagi lokal ko'rinishlar hamda qo'ng'irotlarga xos etnolokal va inoetnik ta'sirlarini aniqlashtirish;
- an'anaviy chorvachilikdagi etnik xususiyatlarni Surxon-Sherobod vohasida yashovchi qo'ng'irotlar misolida yoritish;
- qo'ng'irotlarning uy hunarmandchiligidagi etnolokal jihatlarini ko'rsatib berish;
- o'zbek qo'ng'irotlari an'anaviy turar-joylarining o'ziga xos jihatlarini dala etnografik materiallar asosida ochib berish;
- an'anaviy kiyimlari va zeb-ziynat buyumlari bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlarini asoslab berish;
- vohada yashovchi qo'ng'irotlarning taomlari va marosimiy taomlarining tayyorlanishi, tanovuli va oziq-ovqat mahsulotlari ratsioni hamda etnolokal jihatlarini tavsiflash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Surxon-Sherobod vohasi qo'ng'irotlarining etnik tarixi, aholi tarkibi, hududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlari belgilab olindi.

**Tadqiqotning predmetini** Surxon-Sherobod vohasi qo'ng'irotlarining etnik tarkibi, hududiy joylashuvi, kundalik turmush tarzi, etnoxo'jaligi va moddiy madaniyat, etnomadaniy jarayonlari bilan bog'liq urf-odat, an'ana va marosimlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiy ketma-ketlik, tarixiy-qiyoslash, tasniflash, kuzatuv usullariga asoslangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Surxon-Sherobod vohasi qo'ng'irotlarining Boysun, Bandixon, Qiziriq, Sherobod, Muzrabot, Angor hududlari joylashuvidagi etnik tarkibi va qabilaviy shajaralari, yangi etnik birliklar paydo bo'lishining ijtimoiy hayotga ta'siri,

shuningdek, bu hudud etnoslar orasida shakllangan o‘zaro etnomuloqot makoni bo‘lganligi aniqlangan;

qo‘ng‘irotlarning etnoxo‘jalik xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy omillar, faol xo‘jalik-madaniy munosabatlar ta‘sirida dinamik tarzda o‘zgarib, umummintaqaviy xarakter kasb etganligi, chorvachilikdan dehqonchilikka o‘tish bosqichlari, o‘troqlashuv jarayonidagi muammolar, xo‘jalik hayotida dehqonchilik, bog‘dorchilik, sug‘orish tizimidagi innovatsion o‘zgarishlar dalillangan;

XIX asr oxiri – XX asrning oxirida voha qo‘ng‘irotlarining xo‘jaligida chorvachilikning o‘rni yuqori bo‘lganligi, uy hunarmandchiligida yog‘ochsozlik, kulolchilik, misgarlik etakchi o‘rinda turganligi aniqlangan;

o‘zbek qo‘ng‘irotlari an‘anaviy turar-joylarining o‘tov holatidan paxsa, g‘isht, tosh uylar bilan almashinuvi, madaniy hammomlar, maishiy xizmat ko‘rsatish, uy-ro‘zg‘or, oshxona jihozlari o‘zgarishining o‘ziga xos jihatlari, qo‘ng‘irotlarga xos qadimiy an‘analarning zamonaviylashuv jarayonlari, marosimiy taomlarining tayyorlanishi, an‘anaviy kiyimlar va zeb-ziynat buyumlari bilan bog‘liq qarashlar dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Surxon-Sherobod vohasi qo‘ng‘irotlarining etnohududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlarini tadqiq etishning nazariy-uslubiy yondashuvlari ishlab chiqilib, aholining tarkibi, hududiy joylashuvi, kundalik turmush tarzi, etnoxo‘jaligi, moddiy madaniyati, etnomadaniy jarayonlari bilan bog‘liq urf-odat, an‘ana va marosimlari hamda unga ta‘sir etgan omillarni o‘rganish bo‘yicha etnosotsiologik so‘rovnomalar, tarixiy-etnografik hamda statistik ma‘lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan.

Tadqiqot davomida to‘plangan ma‘lumotlardan oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida tarix, etnografiya, tarixiy o‘lkashunoslik, muzeyshunoslik kabi fanlardan mashg‘ulotlar o‘tishda, mavzuga oid darslik, o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ushbu ilmiy ishda zamonaviy etnologiya fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, turli davrga oid tarixiy-etnografik adabiyotlardan foydalanilganligi, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati, Surxon-Sherobod vohasi qo‘ng‘irotlarining etnohududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlari dala materiallari, tarixiy-etnografik adabiyotlar va statistik ma‘lumotlar asosida ilk marotaba kompleks holda tadqiq etish asosida yorilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati** O‘zbekistonning janubiy mintaqasida “Surxondaryo – etnografik makon” ruknida etnoturizmni rivojlashtirish, etnoparklar tashkil etish hamda mazkur yo‘nalishda yo‘l xaritalari ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Surxon-Sherobod vohasi qo‘ng‘irotlarining hududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlari” mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi asosida:

Surxon-Sherobod vohasi qo'ng'irotlari an'anaviy turar-joylarining o'tov holatidan paxsa, g'isht, tosh uylar bilan almashinuvi, madaniy hammomlar, maishiy xizmat ko'rsatish, uy-ro'zg'or, oshxona jihozlari o'zgarishining o'ziga xos jihatlari, qo'ng'irotlarga xos qadimiy an'analarning zamonaviylashuv jarayonlari, marosimiy taomlarining tayyorlanishi, an'anaviy kiyimlar va zeb-ziynat buyumlari bilan bog'liq qarashlar haqidagi ma'lumotlardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali DUK faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali DUK ning 2022-yil 7-iyundagi 06-31-849-son ma'lumotnomasi). Bu esa, o'zbek qo'ng'irotlari an'anaviy turar-joylarining o'ziga xos jihatlari va an'anaviy jihatlari, marosimiy taomlarining tayyorlanishi, tanovuli, an'anaviy kiyimlari va zeb-ziynat buyumlari bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlarini dala etnografik materiallar asosida yoritishga xizmat qilgan;

Surxon-Sherobod vohasi qo'ng'irotlarining Boysun, Bandixon, Qiziriq, Sherobod, Muzrabot, Angor hududlaridagi joylashuvidagi etnik tarkibi va qabilaviy shajaralari, yangi etnik birliklar paydo bo'lishining ijtimoiy hayotga ta'siri, shuningdek, bu hudud etnoslar orasida shakllangan o'zaro etnomuloqot makoni bo'lganligi, XIX asr oxiri – XX asrning oxirida voha qo'ng'irotlarining xo'jaligida chorvachilikning o'rni yuqori bo'lganligi, uy hunarmandchiligida yog'ochsozlik, kulolchilik, misgarlik etakchi o'rinda turganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 23-yanvardagi 14-son ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanishi O'zbekistonning moddiy va nomoddiy madaniy merosini keng targ'ib qilish hamda mamlakatimizning janubiy mintaqalarida etnoturizmni rivojlantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta (ulardan 5 tasi respublika va 3 tasi chet el jurnallarida) maqola, 10 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislar sifatida e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, sakkiz paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 132 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligini, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati, aprobatsiyasi, natijalarning joriy qilinishi, tarkibiy tuzilishi va hajmi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Mintaqa qo'ng'irotlarining tarixshunosligi va etnohududiy joylashuvi**" deb ataladi. Unda Surxon-Sherobod vohasida qo'ng'irotlari

etnik tarixining manba va ilmiy adabiyotlarda o'rganilishi, etnohududiy joylashuvi va etnik tarkibi tahlil qilinadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi hamda mavzu tarixshunosligining maqsadidan kelib chiqqan holda mavzu bo'yicha amalga oshirilgan ishlar shartli ravishda muammoviy aspektda 4 guruhga bo'lib tahlil qilindi:

1. Rossiya imperiyasi davriga oid adabiyotlar;
2. Sovet davri tadqiqotlari;
3. Mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlar;
4. Xorijiy tadqiqotlar.

Mavzu doirasida bajarilgan adabiyotlar tahlilini bayon qilishdan avval shuni alohida ta'kidlash kerakki, Surxon-Sherobod vohasida qo'ng'irotlarining etnik xususiyatlariga tegishli Rossiya imperiyasi davriga oid ilmiy adabiyotlar kam bo'lib, ularning asosiylari tadqiq etilayotgan davrda mintaqaga turli maqsadlarda kelgan rossiyalik sayyohlar, mustamlaka idora vakillari, harbiy zobitlari tomonidan yozilgan asarlarda bayon qilingan. Xususan, 1863 yilda Samarqand, Buxoro, Xiva hamda boshqa yirik shaharlarni o'rgangan major sayyohi va sharqshunos X.Vamberi 32 ta o'zbek urug'i ro'yxatini keltiradi<sup>1</sup>.

Surxon-Sherobod vohasi qo'ng'irotlarining etnik tarixi va etnohududiy joylashuviga doir N.V.Xanikov<sup>2</sup>, A.Xoroshxin<sup>3</sup>, X.Vamberi<sup>4</sup>, Ch.Valixonov<sup>5</sup>, A.A.Divayev<sup>6</sup>, N.A.Mayev<sup>7</sup>, D.N.Logofet<sup>8</sup>, N.F.Sitnyakovskiy<sup>9</sup> lar olib borgan ilmiy tadqiqot va izlanishlarini qayd etishimiz mumkin.

A.N.Mayev 1878 yilda Sherobod va Boysun beklklariga uyushtirilgan ekspeditsiyaga rahbarlik qilgan va ekspeditsiya natijasida yozilgan bir qancha lavhalarida Surxon vodiysi va Sherobod bekligidagi yashovchi o'zbeklarning qo'ng'irot, marqa, qutchi, yuz, laqay, do'rmon, qatag'on kabi urug' va qabilalari to'g'risida, mahalliy aholining geografik joylashuvi, xo'jalik turmushiga oid ma'lumotlar keltiradi.

XX asr boshlarida tadqiqotchi N.F.Sitnyakovskiy o'zbek qo'ng'irotlarining shajaraviy jadvalini tuzgan. Uning "К генеалогической таблице узбекского рода Кунград" asarida birinchi marta G'uzor, Boysun, Sherobod va Karki beklklarida yashagan qo'ng'irotlarning shajaraviy ro'yxati keltirilgan.

---

<sup>1</sup> Вамбери Г. Очерки Средней Азии. –М., 1868.

<sup>2</sup> Ханьков Н. В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843.

<sup>3</sup> Хорошхин А. Народы Средней Азии (Историко-этнографические этюды) // ТВ. – 1871. – № 9–10.

<sup>4</sup> Вамбери Г. История Бохары или Трансоксании с древнейших времен до настоящего Т. II. – СПб, 1873. – С. 48–72.

<sup>5</sup> Валиханов Ч. Собрание сочинений. В 5- томах. Том I. – Алма-Ата, 1961. – С. 553.

<sup>6</sup> Диваев А. А. О происхождении узбеков // ТВ. – №97. – 1900.

<sup>7</sup> Маев Н. А. Очерки Бухарского ханства. – Ташкент, 1875; Его же. Очерки горных бекств Бухарского ханства // МСТК. Вып V. – СПб., 1879; Его же. Очерки Гиссарского края // МСТК. Вып V. – СПб., 1879.

<sup>8</sup> Логофет Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом, Т.1. – СПб., 1911. – С. 91, 96–99, 104–105.

<sup>9</sup> Ситняковский Н. Ф. К генеалогической таблице узбекского рода Кунград / ИТОРГО. – Ташкент, 1907. Т. 7. – С. 22–30.

Sovetlar davrida mintaqa aholisining etnik tarkibi I.P.Magidovich<sup>10</sup>, L.P.Potapov<sup>11</sup>, B.X.Karmisheva<sup>12</sup>, K.L.Zadixina<sup>13</sup>, L.V.Oshanin<sup>14</sup>, A.A.Semyonov<sup>15</sup>, Q.Najimov<sup>16</sup> lar tomonidan ham tadqiq etilgan.

I.P.Magidovich vohada o'zbeklar tarkibidagi turli etnik guruhlar: mo'g'ullar avlodi – mang'it; turkiy urug'lar – saroy, qatag'on, nayman, turkman, qipchoq, xitoy, qarluq, qirg'iz, mitan; turk-mo'g'ul urug'lari – qo'ng'irot, kenagas, turklar (barlos, musabozori, kaltatoy), qirq-yuz; chig'atoy mo'g'ullari urug'i – chig'atoy, qovchin, qutchi, qalmoq, mo'g'ul, chiraz yoki charos; qadimgi turk va mo'g'ullar avlodlari – madjar yoki minjir, totor, qang'li; arablar avlodi - xo'ja; va boshqalar - xarduri, mirishkor, uymovut, chimboy, qoraxaval, qulyoz va xorazmliklar avlodi – qiyot, turkmanlar avlodi – batoshlar yashaganligini qayd etadi.

O'zbekistonning janubiy hududlari (ayniqsa Surxondaryo vohasi) aholisining etnik tarkibini o'rganishda B.X.Karmishevaning 1945-1971 yillar davomida Tojikiston va O'zbekistonning janubida olib borgan tadqiqotlari natijalari muhimdir. Shu davrda olimaning ilmiy tadqiqotlari natijasida to'plangan katta hajmdagi ma'lumotlar asosida uning monografiyalari va maqolalari e'lon qilindi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston, jumladan Surxon-Sherobod vohasi qo'ng'irotlarining etnik tarixi va etnohududiy joylashuviga doir B.Ahmedov<sup>17</sup>, K.Shoniyozov<sup>18</sup>, X.Doniyorov<sup>19</sup>, A.R.Qayumov<sup>20</sup>, O.Bo'riyev<sup>21</sup>, N.Tursunov<sup>22</sup>,

---

<sup>10</sup> Магидович И. П. Материалы по районированию. Кн.1.Ч.1. Бухара. – Ташкент, 1926; Список населенных пунктов Узбекской ССР 1928 года. – Самарканд, 1929; Материалы Всесоюзной переписи населения 1926 г. в Узбекской ССР. Вып. I. Поселенные итоги. – Самарканд, 1927. – С. 255–272; Материалы по районированию Средней Азии. Кн. I. Территория и население Бухары и Хорезма. Ч. I. – Ташкент, 1926.

<sup>11</sup> Потапов Л. П. Материалы по семейно-родовому строю у узбеков «Кунград» // Научная мысль, – Ташкент – Самарканд, 1930. – №1. – С. 37–57.

<sup>12</sup> См.: Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 323.

<sup>13</sup> Задыкина К.Л. Некоторые вопросы изучения этнического состава населения бассейна Кашка-Дарьи в Сурхан-Дарьинской области Узбекской ССР // Краткие сообщения (Институт этнографии им. Н.Н. Миклухо-Маклая). М., 1962. Т. 37. – С. 39-45.

<sup>14</sup> Ошанин Л.В. Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез ее народов. Часть 1,2. – Ереван.1957–58. – Б. 54.

<sup>15</sup> Семенов А. А. К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани-хана // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. ТИИАЭ АН Тадж. ССР. – Сталинабад, 1954;

<sup>16</sup> Наджимов К. Антропологический состав населения Сурхан–Дарьинской области. – Т.: САГУ, 1958. – С 153.

<sup>17</sup> Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков. – М., 1965.

<sup>18</sup> Шаниязов К. Ш. Узбеки – карлуки: Историко-этнографический очерк. – Ташкент., 1964; Его же. К этнической истории узбекского народа (историко-этнографические исследования на материалах кипчакского компонента). – Ташкент., 1974; Его же. Qang' davlati va qang'lilar. – Toshkent., 1990; См.: Shoniyozov K. O'zbek xalqi shakllanish jarayonining ayrim masalalari // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – 1996. – №6. – В. 79–87; Его же. O'zbek xalqi etnogenezining ayrim nazariy masalalari // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – 1998. – №6. – В. 31–44.

<sup>19</sup> Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent., 1968.

<sup>20</sup> Qayumov A. R. Sherobod vohasi aholisi (XIX–XX asr boshlari) // O'IF. – 1998. – №3. – В. 34–39; Его же. O'zbekiston etnomadaniy muhitida “qatag'on” etnosi // O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va nazariy-metodologik yondashuvlar. – Toshkent, 2004. – В. 115–119; Его же. XIX–XX asr boshlarida etnik jarayonlarning ba'zi xususiyatlari (O'zbek xalqi etnik tarixiga oid mulohazalar) // Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. 1-qism. –Т., 2005. – В. 44–52. Его же. XX asr boshlarida O'zbekiston hududida etnik holat. Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2015 – В.180.

<sup>21</sup> Bo'riyev O. Usmonov M. O'zbeklar: etnik tarixi va etnomadaniy jarayonlar. – Samarqand, 2008. – В. 244.

<sup>22</sup> Tursunov N. Janubiy Surxon vohasi aholisining etnik xususiyatlari. (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Tar.fan. nom. diss... – Т.: Termiz DU, 2007. – В. 28–51.

A.Qurbonov<sup>23</sup>, I.Umarov<sup>24</sup>, M.Usmonov<sup>25</sup>, F.Ochildiyev<sup>26</sup>, N.Norboyev<sup>27</sup>, T.Botirov<sup>28</sup> lar olib borgan ilmiy tadqiqot va izlanishlarini qayd etishimiz mumkin.

M.Usmonov yuqorida tilgan olingan ishlarni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirgan, bu masalada o'z mustaqil xulosalarini keltirgan va bu bilan hudud etnik qiyofasini ochib berishga o'z hissasini qo'sha olgan. Janubiy hudud aholisi to'g'risidagi ma'lumotlarni turli boshqa siyosiy masalaga bag'ishlangan asarlar tarkibidan ham ajratib olish mumkin. Misol uchun, F.Ochildiyevning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Surxon vohasi bekliliklaridagi ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar yoritilgan monografiyasida voha bekliliklarida aholining joylashuvi, etnik tarkibi kabi masalalarni ham uchratish mumkin.

A.Qayumov Surxon-Sherobod vodiysida asosan dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan o'zbek va tojik tilli chig'atoylar, xardurilar, qarluq, barlos, turk, kaltatoy kabi; ko'proq chorvachilik xo'jaligi bilan shug'ullangan bir qism qarluqlar, mang'it, qovchin, o'zbek-xitoy, kenagas, qo'ng'iroq, qatag'on, yuz, do'rmon kabi etnik guruhlar yashaganligini qayd etadi. Tadqiqotchi ushbu etnik guruhlarining vodiy bo'ylab joylashishi haqida ma'lumotlar bergan hamda vodiyda arablar, eroniylar, lo'lilar, afg'onlar va ma'lum vaqt avval kelib qolgan ruslar, turkmanlar, qirg'izlar va yahudiylar kabi etnik guruhlarining bir qancha vakillari ham tarqalganligini ta'kidlaydi.

Xorijiy tadqiqotlar jumlasiga S.Bosvort<sup>29</sup>, S.Ataniyazov<sup>30</sup> lar olib borgan ilmiy tadqiqot va izlanishlarini qayd etishimiz mumkin.

Surxon-Sherobod vohasida qo'ng'irotlarning urug'-qabilachilik tamoyili asosida joylashganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Vaxtamg'ali urug'i ko'proq Surxonning quyi oqimi, Amudaryo vodiysi va Termiz atrofida, Sherobod daryosining o'rta oqimida, Ko'hitang tizmasidagi Gurjak, G'urun, Jangariq va Xo'jaqiya qishloqlarida, qo'shtamg'alilar Sheroboddaryoning o'rta oqimidagi Chilonzor va Xomkon qishloqlarida yashaganlar. Sherobod tumanidagi Kampirtepa, Oqqo'rg'on, Xo'jaqiya, Yangiyer qishloqlari hududlarida vaxtamg'ali urug'ining o'yuvli shoxobchasi vakillari yashashadi. Bu tarmoqning Boyavlod, Orqasido'ng, Oqto'nni, To'manoqto'nni, O'tap, Tuvma, Avlachagir, Kanichi kabi dahalari mavjud.

Qo'shtamg'alilar Sheroboddaryoning o'rta oqimi Kallamozor qishlog'i, Kirshak daryosi havzasi va Xomkonda, Kichik va Katta O'radaryo havzalarida, shuningdek,

---

<sup>23</sup> Qurbonov A. Shimoliy Surxon vohasi etnografiyasi (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmi). – Toshkent: Yangi nashr, 2014. – B. 160.

<sup>24</sup> Umarov I. O'rta Osiyoda turkiy xalqlarning etnogenezi (Qo'ng'irotlar). – Qarshi: Nasaf, 2003.

<sup>25</sup> См.: Usmonov M. Janubiy O'zbekiston va Xorazm vohasi o'zbek – qo'ng'irotlari: o'zaro aloqalar va ta'siri masalasi // O'zbekiston etnologiyasining dolzarb muammolari mavzusidagi IV Respublika ilmiy – nazariy konferensiya materiallari. – T. – N., 2007. – B. 87 – 91; Ero же. O'tov–Janubiy O'zbekiston qo'ng'irotlarining asosiy turar–joyi sifatida // Fan, taraqqiyot va yoshlar. Ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, 2008. – B. 169–172; Ero же. O'zbek qo'ng'irotlari etnik tarixidan // «Nasaflik allomalarning jahon madaniyatida tutgan o'rni» mavzusidagi ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, 2008. – B. 232–236; Bo'riyev O., Usmonov M. O'zbeklar: etnik tarixi va etnomadaniy jarayonlar. – Samarqand, 2008. – 244 b.; va boshq. Usmonov M. O'zbekiston qo'ng'irotlari etnik tarixi, xo'jalik xususiyatlari va identiklik transformatsiyasi (Janubiy viloyatlar misolida). – T.: "Voriz nashriyot", 2019. – B. 188.

<sup>26</sup> Ochildiyev F. Surxon vohasi bekliliklaridagi ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar. – T., 2008. – B. 29–51.

<sup>27</sup> Norboyev N. 92 bo'li o'zbek elining qabila va urug'lari haqida. – T., 1997.

<sup>28</sup> Botirov T. Mangulikka daxldor elim. – Toshkent, 2004.

<sup>29</sup> Bosworth C. E. Kungrat // The encyclopedia of Islam. New edition. Edited by C. E. Bosworth, E. van Donzel B. Lewis and Ch. Pellat. Volume V. – Leiden: E. J. Brill, 1986, – P. 391.

<sup>30</sup> Атаньязов С. Шежере (Туркменин неси дарагты). – Ашгабат, 1994. – С. 114–116.

Sherobod vohasi va Ko‘hitangning shimoliy qismidagi Sho‘rob, Chakchak dovoni yaqinidagi Mavlish va hozirgi Oltinsoy tumani hududlarida o‘rnashganlar.

Boysun tumanidagi Xo‘jabulg‘on, Dahnaijom qishloqlarida shu urug‘ tarmog‘ining tilovmat urug‘i vakillari yashashsa, oqpichoq urug‘i vakillari Sho‘rob, Sariosiyo qishloqlarida joylashgan.

Qonjig‘ali urug‘i Sherobod vohasidan Jarqo‘rg‘ongacha, shuningdek, Surxon daryosidan to Bobotog‘ tizmasiga, Termiz atrofidan Dehqonobodgacha bo‘lgan hududda tarqalganlar.

Oyinnililar Ko‘hitang tog‘ining sharqiy qismida joylashgan Qizilolma va Poshxurd qishloqlarida istiqomat qilganlar. Ko‘hitang tog‘ining g‘arbiy qismida va Sherobod vohasida ham tarqalganlar.

Tortuvlilar, asosan, Boysun bekligi hududida, ya‘ni Sheroboddaryo bo‘yidagi To‘da, Xo‘jabulg‘on, Tillakamar, Dahnaijom qishloqlari va Boysun shahri hamda uning atrofidagi ba‘zi qishloqlarda yashagan<sup>31</sup>.

Qo‘ng‘irotlar XX asr o‘rtalariga qadar o‘rnashgan joylari haqida to‘xtalsak, vaxtamg‘alilar ko‘proq Sherobod vohasi, Surxonning quyi oqimi, Amudaryo vodiysi va Termiz atrofida, Qoratog‘daryo havzasida Sheroboddaryoning o‘rta oqimi hamda Ko‘hitang tizmasining sharqiy yon bag‘irlaridagi bir qator qishloqlarda yashaganlar. Qo‘shnamg‘alilar Sheroboddaryoning o‘rta oqimi (Kallamozor qishlog‘i) Kirshak daryosi havzasi va Xomkonda, Kichik va Katta O‘radaryo havzalaridagi Do‘kxona, Almat, Qorabotir, Cho‘qmozor, Qizilsoy, Kuyik, Isriq, Tolli, Chit, Yong‘oqli, Baqirchi, Terakli, Nayman, Yetimtog‘, Qo‘shnamg‘ali, Qiziljar kabi qishloqlarda, shuningdek, Sherobod vohasi Ko‘hitangning shimoliy qismidagi Sho‘rob, Chakchak dovoni yaqinidagi Mavlish va hozirgi Oltinsoy tumani hududlariga o‘rnashganlar. Qonjig‘ali urug‘i Sherobod vohasidan Jarqo‘rg‘ongacha, shuningdek, Surxondaryodan to Bobotog‘ tizmasigacha, Termiz atrofidan Dehqonobod tumani hududiga (Qashqadaryo vohasi) tarqalgan. Oyinnililar esa Sherobod vohasiga, Ko‘hitangdaryo havzasining g‘arbiy qismida, Qashqadaryo viloyatining janubi-sharqida, Ko‘hitang tizmasining sharqiy yonbag‘irlarida tarqalgan. Tortuvlilar, asosan, sobiq Boysun bekligi, ya‘ni g‘arbda Sheroboddaryo (Darband) dan sharqda Surxondaryo (Qumqo‘rg‘on) gacha, shimoldagi Halqayor daryosi vodiysidan Sherobod bekligigacha bo‘lgan hududga tarqalgan<sup>32</sup>.

XX asrda Surxondaryo viloyatida yangi yerlarning o‘zlashtirilishi bilan tog‘ va adirliklarda yashagan aholi quyi hududlarga ko‘chirildi. Yarim ko‘chmanchi qo‘ng‘irot urug‘lari avvalgi hayot tarzidan o‘troq hayotga o‘tgan. Ichki migratsiyaning kuchayishi tufayli o‘rganilayotgan hudud Janubiy Surxon vohasida yashovchi urug‘larning ko‘pchiligi o‘zaro aralash tarzda yashay boshlagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Mintaqada yashovchi qo‘ng‘irotlarning xo‘jalik faoliyati**» deb ataladi.

<sup>31</sup> Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyasi. - B. 35-36; Qayumov A. Sherobod vohasi aholisining etnik tarkibi (XIX–XX asr boshlari) // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. –1998. – №3. – B. 38.

<sup>32</sup> Umarov I. O‘rta Osiyoda turkiy xalqlarning etnogenezi (Qo‘ng‘irotlar). – Qarshi: Nasaf, 2003. –B. 13.

Unda dehqonchilik turlari va u bilan bog‘liq urf-odatlar, vohada yashovchi qo‘ng‘irotlarning an‘anaviy chorvachiligining va hunarmandchilikning an‘anaviy va zamonaviy jihatlarini tahlil qilinadi.

Surxon-Sherobod vohasida yashagan qo‘ng‘irotlarning vaqt o‘tishi bilan o‘troq turmush tarziga o‘tishi jarayonida, ya‘ni xo‘jalik faoliyatida dehqonchilik yetakchi o‘rinni egallay boshlagan. O‘rganilayotgan hududda qo‘ng‘irotlarning chorvachilikdan dehqonchilikka o‘tishi jarayoni o‘ziga xos bo‘lib, ularning xo‘jalik mashg‘ulotlari o‘zgarishiga sabab bo‘lgan<sup>33</sup>. Qo‘ng‘irotlar xo‘jaligida dehqonchilikning muhim ahamiyat kasb etishiga, XX asrning 50-yillarida yangi yerlarning o‘zlashtirilishi va paxtachilikka ixtisoslashtirilgan intensiv dehqonchilikning jiddiy sur‘atlar bilan rivojlanishi natijasida, yaylovlar uchun zarur bo‘ladigan yerlarning kamayishi hamda an‘anaviy chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholini majburiy tarzda yangi o‘zlashtirilgan yerlarga ko‘chirilishi sabab bo‘lgan. Ayniqsa, XX asrning 60-yillarida yarim o‘troq qo‘ng‘irotlarning yaylovda chorvachilik bilan shug‘ullanishi chegaralab qo‘yilgan, sug‘orma dehqonchilik hamda uning paxtachilik tarmog‘iga katta e‘tibor qaratilgan. Masalan, Qiziriq, Bandixon dashtlarining XX asr 50–60-yillaridan boshlab o‘zlashtirilishi natijasida tashkil etilgan yangi aholi manzillariga qo‘ng‘irotlarning ko‘chirilishi ham ularning xo‘jalik mashg‘ulotlari transformatsiyalashuviga olib kelgan. Bu esa, ularning milliy identikligi, turmush tarzi va xo‘jalik an‘analarida o‘zgarishlariga sabab bo‘lgan.

XX asrning 50–60 yillaridan boshlab qo‘ng‘irotlar xo‘jaligida dehqonchilik asosiy xo‘jalik tarmog‘iga aylangan. Lekin, qo‘ng‘irotlar turmush tarzida dehqonchilik yetakchi mavqega ega bo‘lishi bilan birga ular xonaki chorvachilik bilan ham shug‘ullanganlar. Yarim o‘troq hayot kechirgan qo‘ng‘irotlar an‘anaviy lalmi dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Ma‘lumki, XVIII asrning boshlaridan to XIX asrning o‘rtalarigacha, chorvador qo‘ng‘irotlar yaylovlarga ko‘chib borganlarida qisman lalmi dehqonchilik bilan ham shug‘ullanganlar<sup>34</sup>. Dasht qishloqlari yarim o‘troq aholi o‘troqlashishi natijasida paydo bo‘lgan<sup>35</sup>. Bunday qishloqlarni Surxon-Sherobod vohasining tog‘li hamda dasht hududlarida kuzatish mumkin<sup>36</sup>.

Qo‘ng‘irotlar bahorda “yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi” deb, keng lalmi maydonlarga tariq ekishgan<sup>37</sup>. Dehqonchilik uchun hech qanday sun‘iy sug‘orish tizimini yaratish shart bo‘lmay, ekin maydonlari faqat tabiiy havo yog‘inlari hisoblangan qor, yomg‘irlar bilan to‘yingan. Boshqali ekinlar yetishtirish bilan ko‘proq o‘troqlashayotgan, shu atrofda chorvasini boqib yurgan yarim o‘troq qo‘ng‘irotlar mashg‘ul bo‘lishgan. Ular tomonidan bu joylarda, asosan, tariq, arpa, bug‘doy singari boshqali ekinlar ekilgan.

Surxon-Sherobod vohasida asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lgan qo‘ng‘irotlar o‘z tomorqalarida arpa va boshqa ekinlarni quduq suvi bilan sug‘orishgan. Quduqdan

<sup>33</sup> О традиционном земледелии Сурханского более оазиса подробно см.: Qabulov E. Surxon vohasi xo‘jaligi. – Toshkent: Akademya, 2012. – B. 115 – 175.

<sup>34</sup> Rus sharqshunos olimi V. V. Bartold manbalar asosida X asrdayoq O‘rta Osiyo hududida sug‘orilmaydigan yerlarga “lalmi” termini qo‘llanilganligi haqida yozgan. См.: Бартольд В. В. К истории орошения Туркестана. Сочинения. Т.3. – М.: Наука, 1965. – С. 117.

<sup>35</sup> Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа. – Тошкент, 1974. – С. 167.

<sup>36</sup> Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani Sho‘rob qishlog‘i. 2022 yil.

<sup>37</sup> Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Xomkon qishlog‘i. 2021 yil.

oddiy moslama – *chig'ir, qovg'a* (mesh) orqali arqon (arg'amchi) bilan ko'pincha hayvon (tuya yoki eshak) kuchi yordamida suv tortib chiqarib olingan. Suv tanqisligi tufayli tanlangan yerdan 1,5 arshin<sup>38</sup> kenglikda quduq qazib, uning atrofiga pishiq g'isht terib chiqilgan. Quduq tepasiga maxsus moslama *chig'ir* o'rnatilib, echki terisidan paqir o'rnida *qovg'a*, meshlar tikib, tuya, eshak yordamida quduqlardan suv olingan, shundan keyin dehqon o'z ekinini sug'organ<sup>39</sup>. Qo'ng'irotlar obikor yerlarga "*oq bug'doy*", lalmi yerlarga "*qizil bug'doy*", "*qora qiltiq bug'doy*" ekishgan<sup>40</sup>.

Ma'lumki, o'troq aholining chorvachilik bilan shug'ullanishining o'ziga xos sabablari bo'lgan. Birinchidan, dehqonchilik uchun yer haydashda, xirmon yanchishda, tegirmon, juvozlarni yurgizishda, transport vazifasini bajarishda chorva mollari: ot, ho'kiz, tuya, eshakdan foydalanilgan. Ikkinchidan, dehqon oilalarini go'sht, sut, qatiq, jun, teri bilan chorva mollari ta'minlagan, uchinchidan, dehqon ekini hosildorligini oshirishda qo'y, sigir porisi o'g'it vazifasini o'tagan. Qolaversa, chorvachilik mahsulotlari vohaning ichki va tashqi savdosida asosiy tovar vazifasini o'tagan<sup>41</sup>.

Qo'ng'irotlarning uy hunarmandchiligi bu tabiiy geografik sharoit bilan bog'liq holda taraqqiy etib kelgan. O'rganilayotgan hududda yashayotgan qo'ng'irotlar, asosan, uy hunarmandchiligini chorvachilik bilan birga qo'shib olib borgan. Tovar ishlab chiqarishning ushbu usuli ko'proq yarim natural shaklda bo'lib, asosan o'z ehtiyojini qondirish, ozroq miqdorda o'zlarida tayyorlanmagan mahsulotlarga ayirboshlash maqsadida xizmat qilgan. Vohada XX asr boshlariga qadar tayyor hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning bunday yarim natural usuli ustun bo'lgan. Surxon vohasining Termiz, Sherobod, Boysun, Denov kabi shaharlarida hunarmand aholi o'z mahsulotini bozorda sotish uchun ishlab chiqargan va pul-tovar munosabatlari ko'rinishida ayirboshlashgan.

Qo'ng'irotlarga xos kashtalarning asosiy qismi zoomorf tasvirida bo'lib, ularga qushlar tasviri tushirilgan. Bu tasvirlarni chevarlar tovus nusxa deb ataydilar<sup>42</sup>. Ayrim so'zanalarda qarama-qarshi turgan medalon tasvirlangan qushlarning boshidan xuddi gullar o'sib chiqayotgandek tasavvur uyg'otgan. Boysun aholisi tomonidan tayyorlangan "*zardevor*"larda ham ana shunday juft qushlar, lola gullar tasvirlangan. Ularni, asosan, kelin-kuyovlar xonasiga – chimildiqaqa "hayotlari bahor fasli kabi go'zal, doimo juft-juft bo'lib yursinlar" deb niyat qilib osilgan. Bu xildagi friz tasmalar xonaning ko'ndalang va boylama devorlari ustki qismini bezatib turgan.

Qo'ng'irot ayollari o'z farzandlari uchun gilam, palos, bo'g'joma to'qib, nafis kashtalarni tikkanlar. Mazkur buyumlar tor doirada, xususan, o'z xonadonlarida, qarindosh-urug'lar o'rtasida foydalanish uchun mo'ljallangan. Shunga qaramasdan, qo'ng'irotlarda kashtado'zlik yuksak badiiy mahorat bilan bajarilgan bo'lib, ranglarning uyg'unligiga ham qat'iy amal qilingan<sup>43</sup>. Shuningdek, qo'ng'irot qizlari uy

<sup>38</sup> 1 arshin – 0,71 sm. ga teng uzunlik o'lchov birligi.

<sup>39</sup> Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent, 1994. – B. 95.

<sup>40</sup> Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani To'da qishlog'i. 2020 yil.

<sup>41</sup> Поездка полковника Матвеева по бухарским и афганским владениям в 1877г. // Сборник материалов по Азии. Вып. V.-СПб., 1883.- С. 103.

<sup>42</sup> Nosirova Z. Boysun naqshlarida bahor ifori // Moziydan sado. – 2008. – №1. – B. 7.

<sup>43</sup> Дудин С. М. Ковровые изделия Средней Азии // СМАЭ. Т.7. – Л., 1928. – С. 139–140.

sharotida tikkan poyondozi, xaltacha va napramachlar ham tayyorlashgan. Aynan ular uchun tikilgan kashtalar kichik-kichik o'lchamda bo'lib, qizg'ish, to'q ko'k, oq-qora, och sariq, jigarrang va boshqa ranglardagi jun matolarga tikilgan. Kashtado'zlikda o'ziga xos turli naqshlardan foydalanilgan. Kashtalarda yulduzchalar, doira, to'rtburchak shaklidagi gulli naqshlar va turli-tuman ko'rinishlar aks etgan.

Chorva junini sifatli va o'z vaqtida qirqishga, yaxshi jun beruvchi qo'ylarni ko'paytirishga alohida e'tibor berilgan. Qo'y qirqimi amalga oshirilgach junni yuvish, tozalash, savash, tarash va yigirib ip holatiga keltirish asosan ayollarning yumushi hisoblangan. Ayollar jun iplarni ishlatganda qo'llari qizargan, terisi shilinib qavargan, ba'zan terining turli xil allergik kasalliklarga chalinishiga olib kelgan. Shu sababli ip tuzli suvda qaynatilib, zahri yo'qotilgan. Ba'zan suvga un solib qaynatilgan va quyuc yelim holatiga kelgan unli qorishmaga jun iplarni solib, qozonlarning qopqog'i 2–3 soat berkitib qo'yilgan<sup>44</sup>. Bu jarayon "*ipga dam berish*" deyilgan. Shundan so'ng iplar qozondan olingan va oftobda quritilgan. Iplar yaxshi qurigach, toza suvda yuvib olingan va pishiq, mustahkam, chidamli bo'lishi uchun xamir qorishmasiga solingan. Bunday usulda tayyorlangan ip aholi orasida "*halimi ip*", "*qo'qiyomi ip*" deb atalgan<sup>45</sup>. Tirik qirqimda olingan qo'y juni yaxshilab yuvilib, titilgan va sabov bilan savalangan. So'ngra jun taroqda taralib, urchuq yoki charxda yigirilgan.

Jun yigirishda qishloq hunarmandlari tomonidan tayyorlangan urchuqdan foydalanishgan<sup>46</sup>. B.X.Karmisheva urchuqning turlari sakkizta bo'lganini ta'kidlaydi<sup>47</sup>. Junni tayyor mahsulot holatiga keltirish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilgan. Qirqib olingandan so'ng jun yuvilib, quritilib, qo'lda titib chiqiladi. Urchuqda jun yigirilib, so'ng kalavalangan. Kalavalangan iplar to'zilib, rang beriladi va quritiladi. Bo'yalgan iplar o'rmak qilingan holda to'qilgan<sup>48</sup>.

Dissertatsiyaning «**Qo'ng'irotlarning moddiy madaniyatida transformatsiyon jarayonlar**» deb atalgan uchinchi bobida Surxon vohasida qo'ng'irotlarning an'anaviy turar-joylarida mintaqaviy va etnik xususiyatlar, milliy kiyim-kechaklar va zeb-ziynat buyumlari: an'anaviylik va transformatsiyon jarayonlar hamda an'anaviy taomlar: tasnifi va mahalliy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Qo'ng'irotlarning asosiy turar-joylari o'tov bo'lib, nikoh to'yi va motam marosimlarida, albatta, oq o'tov tikish va kelinni o'tovga tushirib olish hamda marhumni o'tovdan kuzatish shart bo'lgan. Ko'pchilik o'ziga to'q oila o'g'il uylantirish munosabati bilan o'tov xarid qilgan. Odatda, 7–8 yil o'tgandan so'ng o'tov kigizlari qorayib ketganligi va uning ustki jihozlari eskirganligi bois "*qora uy*" nomini olgan. Ko'p hollarda o'tov 10–15 yil oralig'ida almashtirilgan. Biroq, bu safar o'tov kigizlarini oq jundan tayyorlash shart bo'lmagan.

<sup>44</sup> Boshqa turkiy xalqlarda jun iplar - kalava sutga botirib olingan. См.: Томина Г.Н. Ткани в одежде кочевых и полукочевых народов Средней Азии // Традиционная одежда народов кочевых и полукочевых народов Средней Азии и Казахстана.-Москва, 1989.- С. 230. Turkmanlarda ham bug'doy uni qorishmasiga tuz solib jun iplarni qaynatishgan. Qarang: Васильева Г.П. Туркмены-нохурли // СЭС. Т. I.-М., 1954. - С. 82.

<sup>45</sup> Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Taroqli qishlog'i. 2021 yil.

<sup>46</sup> Qabulov E. Surxon vohasi xo'jaligi... - B. 219-220.

<sup>47</sup> Кармышева Б.Х. Ткачество и прядение у населения южных районов Таджикистана и Узбекистана (XIX-начало XXв.) // Проблемы типологии в этнографии. -М.: Наука, 1978.- С. 257.

<sup>48</sup> Qabulov E. Surxon vohasi xo'jaligi... - B. 220.

To'y "oq o'tov" ini o'rnatish katta oilaviy tantana hisoblangan. "Oq o'tov"ni yangi oila qurayotganlarga ular hayotida bir marotaba tayyorlangan. Yarim o'troq o'zbeklar, xususan, qo'ng'irotlar o'tovni, odatda janubga qarab qurishgan. Buning sababi, g'arbdan esayotgan izg'irin, yog'adigan yog'in va sharqdan esadigan qirqma shamollar o'tovning eshigiga to'g'ri urmasligi hisobga olingan. Shuningdek, tong otgandan kun botguncha ichki yorug'lik bir xil tushib turishi mo'ljallangan. Qiblaga tomon oyoq uzatilmagan va yotilmagan<sup>49</sup>.

O'tovlarning yog'och qismi ustalarga buyurtma asosida tayyorlangan yoki bozordan sotib olingan. Uyning qoplamasi (kigiz va boshqa materiallar), mustahkamlash vositalari (bog'lag'ichlar), ichki hamda tashqi bezaklarini oilaning mohir qo'lli ayollari bajarganlar. O'tov jun va ip gazlamalar bilan bezatilgan, chetlariga maxsus to'qilgan popukli gilamlar osilgan. Qadimiy turar-joyning bu turi hisoblangan o'tovlarni Sherobod va Boysun dashtlarida chorvachilik yaylovlarida hozir ham uchratish mumkin<sup>50</sup>.

Qo'ng'irotlarda uyning eshigidan kiraverishda, ya'ni, o'rtada qazilgan o'choq bo'lgan. Aholi tomonidan o'tovga alohida e'tibor berilib, ayniqsa, yorug'lik tushishi, havo almashishi, o'choqdan chiqadigan tutunlarni avvaldan qora uyning chang'arog'ining, tuynugining joylashishi bilan bog'liq holda tiklashgan. Tuynukning to'rtta uch quloch uzunlikdagi tuynuk bov "arqonlar" i bo'lib, uyning to'rt tomonidan pastga tushib turgan. Tuynukni ochib-yopishda bu tuynuk bovlardan foydalanilgan<sup>51</sup>.

O'tovga kiraverishda o'ng tomonda (irg'ada) uy ro'zg'or buyumlari, idish-tovoqlar, qozon-qasqoqlar, dasturxon, mesh va tuluplar, un va turli zarur narsalar solib qo'yiladigan qop va xaltachalar hamda yeguliklar turgan. Chap tomonda bo'sag'a yaqiniga qopda ot yemi, qopning ustida yoki yonida otning egar-jabduqlari qo'yilgan, keraga quloqlariga xurjun, ot to'rva, yugan va echki qilidan eshilgan arqonlar ilib qo'yilgan. O'tovning to'rida napramach va bo'g'jomalar joylashgan.

Mehmonlar uchun o'tovning to'ridan joy qilingan, mehmonlar bo'lmagan kunlari to'rida oila boshlig'i o'tirgan, o'tovning chap tomonida erkaklar, uy-ro'zg'or buyumlari joylashtirilgan, o'ng tomonida ayollar o'tirgan. Yangi oila qurgan kelin-kuyovlar oq o'toviga, ular to bir farzandli bo'lgunicha uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumlari, idish-tovoqlar qo'yilmagan. Bu davrda o'tovning ichki qismida napramach, uning ustiga bo'g'jomaga o'rab qo'yilgan bo'g'cha va kelinning yig'ilgan yuklari turgan. Shuningdek, o'tov ichi kelin sepi, kiyimlari, gilamlar, kelin tomonidan tikilgan turli kashtalar va sochiqlar bilan bezatilgan. Ular bitta farzandli bo'lganlaridan so'ng chaqaloq uchun zarur bo'lgan buyumlar o'tov ichiga asta-sekinlik bilan to'la boshlagan. Uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumlari, idish-tovoqlar va boshqa kerakli narsalar yangi oila mustaqil bo'lib ajralib chiqqanidan keyin ota-onalari tomonidan berilgan<sup>52</sup>.

Dunyodagi har bir xalqning an'anaviy kiyimlaridagi matolar tabiiy iqlim sharoiti, xo'jalik mashg'uloti, ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Dehqonchilik bilan shug'ullangan aholining kiyimlari asosan paxtadan

<sup>49</sup> Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani Inkobod, Gummataq qishloqlari. 2022 yil.

<sup>50</sup> Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyasi... – B. 76.

<sup>51</sup> Dala yozuvlari. Sherobod tumani Kampirtepa qishlog'i. 2021 yil.

<sup>52</sup> Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Xomkon qishlog'i. 2022 yil.

to‘qilgan matolardan tikilgan bo‘lsa, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi esa asosan jundan tayyorlangan matolardan kiyimlar tikishgan. Uy sharoitida ip, jun, pilla, teri va boshqa narsalardan mato tayyorlash an‘anasi O‘zbekistonda juda qadimdan mavjud bo‘lgan<sup>53</sup>.

Surxon vohasida aholining kiyim-kechaklari bo‘z, olacha, qalami, karbos, so‘si, xosa kabi paxtali matolardan tikilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mintaqada mazkur matolarga bo‘lgan talabning o‘zgara boshlashi ishlab chiqarish munosabatlari bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Voha aholisi tomonidan an‘anaviy kiyimlar uchun ishlatilib kelingan matolardan biri bu - olachadir. Olacha yo‘l-yo‘l mato bo‘lib, yo‘llari qatorlariga qizil, qirmizi, zangori, to‘q yashil rang tushirilgan. Olachadan odatda, erkaklar, bolalar va ayollar uchun kundalik kiyimlar tikilgan. Bo‘z, olacha matolarini asosan o‘troq hayot kechiruvchi aholi to‘qib bo‘yagan. Yarim o‘troq hayot kechiruvchi chorvador qo‘ng‘irot va juzlar esa ulardan bu mahsulotlarni sotib olgan<sup>54</sup>.

Etnolog O.A.Suxarevaning ta‘biri bilan aytganda: “Kiyimning yuzaga kelishi va turlarining ko‘payishida kishilarning yashash tarzi, mehnati va iqlim sharoitidan tashqari, ularning madaniy rivojlanishi, estetik didlarining o‘sishi ham asosiy omillardandir”<sup>55</sup>. Kiyimlar davrlar o‘tishi bilan, ijtimoiy-siyosiy rivojlanish jarayonida o‘ziga xos tarzda rivojlanib boradi. Bu esa tadqiqotchilardan kiyimlar tarixini o‘rganish va uni yoritishda katta mas‘uliyat talab etadi. Chunki xalqlarning etnik tarkibini o‘rganishda hamda uni ilmiy asoslashda kiyimlarning davrlar o‘tishiga qaramasdan o‘z milliyligini saqlab qolganligi o‘ziga xos o‘ringa ega<sup>56</sup>.

Qo‘ng‘irotlarda ham boy, o‘ziga to‘q erkaklar “*qoqma chakmon*”, cho‘ponlar, oddiy va o‘rta hol tabaqaga mansub erkaklar esa “*ko‘k chakmon*” kiygan. Bu chakmonlar o‘z matosining sifati bilan bir-biridan farq qilgan<sup>57</sup>. “*Qoqma chakmon*” qalin, pishiq qora jun matodan ustki va ostki qismi ikki qavat qilib bejirim to‘qilgan. Bu chakmonni to‘qish uchun uzoq va mashaqqatli mehnat zarur bo‘lib, uni o‘ziga to‘q kishilar maxsus buyurtma asosida tayyorlatganlar. “*Ko‘k chakmon*” ancha yupqa va ixcham bo‘lib, yengil jun matodan to‘qilgan. Voha cho‘ponlarining qahraton qish oylarida ustiga kiyadigan “*kebanak*”<sup>58</sup> ustki kiyimi ham qo‘y junidan tayyorlangan. Kebanakning ichi kigizdan bo‘lgan. Shuningdek, qo‘ng‘irot, yuz, tog‘chi urug‘larining erkaklari, asosan, qo‘y junidan tayyorlangan “*bosma chakmon*” yoki “*kigiz chakmon*” kiyganlar.

Surxon vohasida yumshoq, mayin qo‘y junidan tayyorlanadigan bosma shol, bosma olacha keng tarqalgan. “*Bosma olacha*” ning tikilishi o‘ziga xos bo‘lib, uni

<sup>53</sup> Сухарева О.А. Художественные ткани // Народное декоративное искусство Советского Узбекистана. Текстиль. – Ташкент, 1954.- С. 94.

<sup>54</sup> Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Xomkon, Xo‘jaqiya qishloqlari. 2021 yil.

<sup>55</sup> Сухарева О.А. Древние черты в формах головных уборов народов Средней Азии // ТИЭ.-М.-Л., 1954.Т.XXI. - С. 250-289.

